

“USMON AZIMNING “ADOLAT FASLI” TARIXIY DRAMASIDA
ADOLATPARVARLIK IJTIMOYIY ESTETIK IDEALI

Atadjanov G‘ulomjon To‘xtaboevich

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqolada istiqlol yillarida yaratilgan O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning “Adolat fasli” tarixiy dramasi tahlil etiladi. Bu tarixiy dramada buyuk fotih Amir Temur va uning adolatparvarlik siyosati ijtimoiy estetik ideal sifatida namoyon bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy drama, obraz, tarixiy haqiqat, adolat, ijtimoiy estetik ideal.

O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim o‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo‘shdi. Adibning shu kunga qadar “Kunduzsiz kechalar” (1997), “Adibning umri” (2005), “Abdulla Qahhor” (2007), “Alpomishning qaytishi” (1997), “Tohir va Zuhra” (1997), “O‘tgan zamon hangomalari” (2003), “Bor ekanu yo‘q ekan” (2007), “Bir qadam yo‘l” (1978-1997), “Bozor” (2007) dramalari chop etilgan. Ularning ko‘pchiligi sahnalashtirilgan. Usmon Azim tarixiy shaxslar va adabiy shaxslar obrazini o‘z dramalarida mahorat bilan yaratdi. Jumladan, Cho‘lpon (“Kunduzsiz kechalar”), Abdulla Qahhor (“Abdulla Qahhor”), Oybek (“Adibning umri”) tarixiy adabiy obrazlarini yaratdi. Dramaturgning tarixiy drama janridagi ijodiy tajribalari mukammalashib nihoyat buyuk sohibqiron Amir Temur haqida “Amir Temur. Adolat fasli” tarixiy dramasini yaratdi. Dramada asosiy syujet Sohibqiron Amir Temurning o‘g‘li Mironshohning turli xil betiyiq qiliqlari, beodobligi uchun uni jazolash maqsadida Sultoniya shahriga borishi, Mironshoh va arkoni davlatiga qo‘shib, hibsga olinishi, zindonband qilinib, jazoga tortilishi, jazodan ozod qilinishi haqidagi voqealardan iborat.

Tarixiy dramada jami o‘n beshta obraz ishtirok etadi. Bular Amir Temur, Mironshoh (Amir Temurning o‘g‘li), Mahmud Shahob Xurosoniy (vazir), Nasriddin Mahmud (vazir), Xonzoda (Amir Temurning kelini), Zayniddin Abubakr Taybodiy (Amir Temurning piri), Said Baraka (Amir Temurning piri), Hakim Sulduz shig‘ovul, Amir Shohmalik (sarkarda), Abu Yazid xabarchi (Yashirin ish olib boruvchi maxsus xodim), Xo‘ja Makorim Buzurg (Mironshohning vaziri), Abduqodir naychi (Mironshohning ulfati), Amir Kabir Xisrav (Mironshohning yaqinlaridan), Qilich Axtachi (Mironshohning yaqinlaridan), Malik Qoracha mingboshi va boshqalar ishtirok etadi. Tarixiy drama jami oltita sahna ko‘rinishidan iborat.

Tarixdan ma’lumki, Amir Temur yigirma sakkizta davlatni adolat bilan boshqargan. Adolat yo‘lida hech kimni ayamagan. Hatto o‘z o‘g‘lini ham ayamaydi. Usmon Azim mazkur dramada sohibqiron Amir Temurning davlat boshqaruvidagi adolatparvarlik fazilatini o‘tkir dramatic syujet asosida shakllantira olgan. Ya’ni

dramada maishatga berilgan Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh va uning gunohlari ota-bola o‘rtasida juda katta ziddiyatni keltirib chiqaradi. Mironshohning xotini Xonzoda qayinotasi Amir Temurga Mironshohning maishatga berilgani, haramdagi nopokliklar, uning qo‘li ostidagi a‘yonlarning davlat xazinasini o‘marishi, oddiy xalqning soliq va o‘lponlar solinib qiynalayotgani haqida xabar yetkazadi. Amir Temur o‘zining tuzuklarida yozganidek, hatto o‘g‘liga ham shafqat qilmaydi. Mironshoh va uning atrofidagi barcha gunohkorlarni hibsga olishga buyruq beradi. Abu Yazid xabarchini Mironshoh haqidagi haqiqatlarni aytmaganligi uchun o‘lim jazosiga buyuradi. So‘ngra vazirining eslatmasi bilan uning barmog‘ini kesishini buyuradi.

Tarixiy dramada jangovar musiqa, otlar dupiri, kishnashlari, nay navosi, dobil bongi sohibqiron Amir Temur xarakteri va uning ulug‘vorligini mukammallashtiruvchi muhim badiiy detallar sifatida ishtirok etgan. Ayniqsa, dobil bongi va nay navosi bir-biriga ham zid, ham esh musiqiy detal sifatida gavalantirilgan. Xususan, dramada shunday izoh bor: “Amir Shohmalik ta‘zimlar ila chekinib, sahnadan chiqib ketadi. Nogoh dobilning bongi yangraydi. Tevarakka qo‘rquv taraladi. Bu bong har dam-har dam dunyoga dahshat solib gumbirlayveradi”¹. Drama Amir Temurning tushi bilan boshlanadi. U tushida piri Taybodiy bilan uchrashadi. Bu tushda ham Taybodiy adolat haqida Amir Temurga nasihat qiladi. Hatto, tushda ham nay navosi ostida sohibqiron bilan pir o‘rtasida suhbat bo‘lib o‘tadi. Tush tugallanayotgan mahalda nay avjiga chiqib bo‘zlaydi. Amir Temur boshiga tushgan og‘ir mushkulot ichida g‘am chekadi. Chunki, adolatni o‘rnatish uchun u o‘z farzandini ham ayamasligi kerak edi. Amir Temur o‘zining adolatparvarlik prinsipiga sodiq qolgan holda o‘g‘li Mironshohni jazolashi kerak edi. Shu tariqa tarixiy dramada adolatli shoh (Amir Temur) va maishatparast hukmdor (Mironshoh), ota va o‘g‘il ziddiyati shakllantirilgan. Dramada ota va o‘g‘il o‘rtasidagi konflikt teran ochilgan. Dramada Abuqodir naychi obrazi ikki ma‘noni tashigan. Naychi obrazi o‘z kasbining ustasi va shu bilan birga kichkina odam falsafasini o‘zida mujassamlashtirgan. Amir Temur uni so‘roq qilib, aybini bo‘yniga qo‘yadi. U gunohkorligini bilgan holda faqat “kichkina odamman” deb o‘zini oqlaydi. Sohibqiron uning ilohiydan berilgan iste‘dodini qadrlaydi. Shuning uchun naychining zindondan qochishiga ishora beradi. Naychi drama yakunida qayta tarbiyalanganligi ma‘lum bo‘ladi. U o‘z iste‘dodini va san‘atini saroy odamlariga sotmaydi. Ko‘ngil ishi bilan shug‘ullanadi.

Tarixiy dramada Amir Temur va Mironshoh, Amir Temur va Xonzoda, Amir Temur va Abu Yazid xabarchi, Amir Temur va Xo‘ja Makorim Buzurg, Amir Temur va Amir Kabir Xisrav, Amir Temur va Qilich Axtachi, Amir Temur va

¹ Azim U. Amir Temur. Adolat fasli. Tarixiy drama // Teatr. 2018, 2.-B 47.

Abduqodir naychi o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlar va savol-javoblar, muloqotlar shaklida syujet rivojlantirilgan. Amir Temur o‘g‘li Mironshohni o‘lim jazosiga buyuradi. Amir Temur o‘zining farzandidan ayrilib qolish ya’ni judolik tuyg‘usi bilan Hakim Sulduz shig‘ovul bilan dardkash bo‘lib qoladi. Chunki shig‘ovul uchta pahlavon o‘g‘lini qaro yerga bergan. U dardkashiga shunday deydi: “ Amir Temur. Voh, inim! Bu dunyo-tosh! Bu toshning ichida nafas olishga kuchim yetmayabdi... Bu Mironshohning qilmishini qara!.. Voh, sho‘rlik bolam! Mironshohim! Seni qutqazay desam, qo‘limdan bir ish kelmasa!... Nega bu yo‘llarga kirding?.. Voh, bolam! Shig‘ovul. Sohibqiron ... O‘zingizni bosing! Amir Temur. Voh, Parvardigor! Qanday kunlarga qoldim, Parvardigor!..”².

Dramada Amir Temur ruhiyatidagi kuchli ziddiyat ishonchli yoritilgan. Ya’ni sohibqiron o‘g‘li Mironshohga o‘lim jazosini berar ekan, uning ruhiyatida adolatli shoh va mehribon ota bir-biri bilan ayovsiz kurashadi. Mohir dramaturg shoh va aybdor, ota va o‘g‘il o‘rtasidagi ziddiyatli va mehrlil munosabatni har tomonlama ochib bera olgan. Dramadagi voqealar keskinlashgandan keskinlashadi. Adolatli hukmdor o‘z hukmini bekor qilmaydi. Ammo, shariat qoidasiga ko‘ra, otdan yiqilib, boshi lat yegan Mironshohning ruhiy holati oydinlashgach, Amir Temur o‘lim jazosini bekor qiladi. Tarixiy manbalarda Mironshohning otdan yiqilishi haqida yozib qoldirilgan. Bu tarixiy manbalardan biri Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asaridir.

Xullas, Usmon Azimning “Amir Temur. Adolat fasli” tarixiy dramasida sohibqiron obrazi va uning davlat boshqaruvdagi adolatparvarlik, halollik fazilati mahorat bilan badiiy talqin etilgan. Xususan, dramada adolat ijtimoiy ideali ham shaxs timsolida, ham g‘oya timsolida atroflicha yoritilgan. Mazkur drama istiqlol davri dramaturgiyasining yutuqlaridan biridir. Chunki, sovet davri adabiyotida Amir Temur obrazi bir tomonlama, salbiy bosqinchi obrazi sifatida noto‘g‘ri talqin qilingan. Usmon Azim “Amir Temur. Adolat fasli” tarixiy dramasi bilan ana shu noto‘g‘ri badiiy talqinlarga barham berdi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azim U. Amir Temur. Adolat fasli tarixiy drama // Teatr 2018/2,3.
2. Rahmatullayeva D. Istiqlol davri o‘zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazini yaratish muammolari: Filol.fan nomzod. diss... Toshkent, 2000.
3. Fozilova M. Usmon Azimning dramaturgik mahorati. –Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
4. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at, 2000.

² Azim U. Amir Temur. Adolat fasli. Tarixiy drama // Teatr. 2018, 3.-B 45.